

1970-YILLARDA QORAQALPOG'ISTONDA BALIQCHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN CHORA- TADBIRLAR


*Bekimbetov Konisbay Mirzabayevich, O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq
gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti*

MEASURES FOR THE DEVELOPMENT OF THE FISHERY INDUSTRY IN KARAKALPAKSTAN IN THE 1970S

*Bekimbetov Konisbay Mirzabaevich, Karakalpak Research
Institute of Humanities of the Karakalpak Branch of the Academy
of Sciences of the Republic of Uzbekistan*


МЕРОПРИЯТИЯ ПО ПОДДЕРЖКЕ РЫБНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ В 1970-Х ГОДАХ

*Бекимбетов Конисбай Мырзабаевич, Каракалпакский
научно-исследовательский институт гуманитарных наук
Каракалпакского отделения Академии наук Республики
Узбекистан*



<https://orcid.org/0009-0006-0445-1206>

e-mail:
kunas_bekim@mail.ru



Annotatsiya: Baliq mahsulotlari ishlab chiqarishni doimiy ko'paytirish, mahsulot turlarini yaxshilash va aholi ehtiyojlarini qondirish uchun Orol dengizidan ovlanadigan qimmatbaho baliq turlarini tejash maqsadida, Mo'ynoq baliq konserva kombinati okean baliqlaridan konservalar ishlab chiqarishni o'zlashtirdi.

Kalit so'zlar: Mo'ynoq baliq konserva kombinat, baliqchilik xo'jaligi, sanoat, orol dengizi, skumbriya, suv havzalar, ishlab chiqarish, dengiz bo'yi ko'llari, ekologik falokat.

Abstract: In order to ensure the continuous growth of fish production, improve the diversity of fish products, and meet the nutritional demands of the population, the Muynak Fish Canning Plant undertook the production of canned goods from oceanic fish species, with the aim of conserving valuable fish resources traditionally harvested from the Aral Sea.

Key words: Muynak Fish Canning Plant, fisheries, industry, Aral Sea, scumbria, water bodies, production, coastal lakes, ecological disaster.

Аннотация: В целях постоянного увеличения производства рыбной продукции, улучшения ассортимента и удовлетворения потребностей населения, а также экономии ценных видов рыбы, добываемых в Аральском море, Муйнакский рыбоконсервный комбинат освоил производство консервов из океанической рыб.

Ключевые слова: Муйнакский рыбоконсервный комбинат, рыбное хозяйство, промышленность, Аральское море, скумбрия, водоемы, производство, прибрежные озера, экологическая катастрофа.

KIRISH. Qoraqalpog‘iston viloyat partiya qo‘mitasi va QQASSR Vazirlar Kengashi o‘sha paytdayoq Orol dengizining qurishi munosabati bilan o‘z tashvishlarini bildirdilar. 1960-yillarda yangi suv xo‘jaligi inshootlarini qurish va mavjud kanallar orqali suv iste‘molini kengaytirish hisobiga Amudaryodan suv olish sezilarli darajada oshdi. Amudaryo oqimining kamayishi va Sirdaryoga suv tashlashning to‘xtatilishi Orol dengizi havzasi rejimining gidrogeologik o‘zgarishiga olib keldi, uning sathi 1970-yillarning boshlarida 180-200 sm ga pasaydi va suv sathi 67 dan 50 kv km gacha qisqardi. Orol dengizida suv sathining pasayishi Amudaryo gidrogeologik qiyaligining oshishiga va o‘zanining chuqurlashishiga sabab bo‘ldi, natijada suv hatto toshqin cho‘qqisida ham qirg‘oqdan chiqmaydi va deltani suv bosmaydi.

Shu munosabat bilan Amudaryo deltasining 800 ming gektardan ortiq maydoni yoki Qoraqalpog‘iston hududining 50 foizi (Ustyurt va Qizilqumni hisobga olmaganda) noyob o‘simlik va hayvonot dunyosi, baliq urchish joylari va yaylov-pichanzorlarga ega bo‘lgan hududning qurib qolishining oldini olish muammosi dolzarb bo‘lib qoldi. Bu yillarda avtonom respublikaning xalq xo‘jaligi shu sababli yiliga 8 mln rubl tabiiy ishlab chiqarishning tovar mahsulotlarini (baliq, go‘sht, qunduz mo‘yna, ondatra) yo‘qotdi[1:18]. Bundan tashqari noyabr-aprel oylarida Amudaryo oqimining nihoyatda kam bo‘lganligi sababli Qiziljar nasos stansiyasida Buxoro-Ural, O‘rta Osiyo-Markaz gaz quvuri kompressor stansiyalariga, Qo‘ng‘irot-Makat temir yo‘liga va Ustyurt platosidagi boshqa obyektlarga xizmat ko‘rsatuvchi magistral suv quvurlariga suv olish sharoitlari ham keskin yomonlashdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ushbu maqolani yozishda asosan arxiv materiallardan, tarixiy-qiyosiy va mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi.

NATIJALAR. 1970-yilda S.Ya.Juk nomidagi «Gidroproyekt»ning O‘rta Osiyo bo‘limi «SSSR va Afg‘oniston o‘rtasidagi chegara uchastkasida Panj daryosi va Amudaryodan kompleks foydalanish sxemasi»ni ishlab chiqdi. Sxema doirasida umumiy quvvati 17720 MVt va

umumiy ishlab chiqarish quvvati 81,9 milliard kVt/soat bo‘lgan 13ta gidrouzel qurilishi rejalashtirilgan edi. Eng yirik gidrouzel quvvati 4 ming MVt bo‘lgan Dashtijum GESi bo‘lishi kerak edi. Amudaryo suv resurslaridan kompleks foydalanishning ishlab chiqilgan sxemasiga ko‘ra, 1975-yilga kelib suv iste‘moli shunchalik ko‘payadiki, 1969-1971-yillardagi 28-32 milliard kub metr o‘rniga Orol dengiziga tashlanadigan suv 5-5,5 milliard kub metrgacha kamayadi.

Shu munosabat bilan Respublika hukumati baliq urug‘lash joylarini va qamishzorlarni qisman tiklash maqsadida 1968-yilning mart-aprel oylarida Bayguja hududida daryoni to‘sdi. Natijada 20 kun ichida delta 500 million kub metrdan ortiq suv yuborildi. Bu esa 40 ming gektarga yaqin maydonda baliq urug‘lash joylarini vaqtincha tiklash va 50ming gektardan ortiq yaylovlarni suvga to‘yintirish imkonini berdi. 1971-1972-yillarning dekabr-aprel oylarida Qiziljo‘a o‘zanida tuproq to‘g‘on qurildi. Bu to‘g‘on O‘rta Osiyo - Markaz va Buxoro - Ural gaz quvurlari kompressor stansiyalari, temir yo‘l va Ustyurt platosidagi boshqa inshootlarni uzluksiz suv bilan ta‘minladi. Bundan tashqari, baliq urug‘lash joylari va yaylovlarga 1100 ming kub metrdan ortiq suv yetkazib berildi. Bu esa 50ming gektarga yaqin baliq urug‘lash joylarini va 100 ming gektardan ortiq yaylov-pichanzorlarni suvga to‘yintirish imkonini berdi. Ushbu tadbirlar natijasida yil davomida baliqchilik, ondatra ovlash va chorvachilikdan 7 million so‘mga yaqin qo‘shimcha mahsulot olish rejalashtirilgan edi.

Hukumat 1970-yillardayoq Orol dengizi suvining kamayib borayotganini tan olgan, bu esa baliqchilikka xavf tug‘dirgan. 1971-yil 28-iyunda QQASSR Vazirlar Kengashi «Qoraqalpog‘iston ASSR ichki suv havzalarida baliq ovini ko‘paytirish va aholini yangi baliq bilan ta‘minlashni yaxshilash bo‘yicha ba‘zi chora-tadbirlar to‘g‘risida» qaror qabul qildi. 1971-yil 19-noyabrda O‘zKP MK va O‘zSSR Vazirlar Kengashi «Respublikada 1971-1975-yillarda baliqchilik va baliq xo‘jaligini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 554-sonli qaror qabul qildi.

Baliq mahsulotlari ishlab chiqarishni doimiy ko'paytirish, mahsulot turlarini yaxshilash va aholi ehtiyojlarini qondirish uchun Orol dengizidan ovlanadigan qimmatbaho baliq turlarini tejash maqsadida, Mo'ynoq baliq konserva kombinati 1969-1971-yillar davomida okean baliqlaridan konservalar ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun 17 ta uskunani o'rnatdi. 1970-yildayoq Mo'ynoq baliq-konserva kombinatiga okean baliqlari keltirilgan. 1970-yilda okean baliqlaridan konserva ishlab chiqarishni ta'minlash maqsadida Mo'ynoq baliqchilik kombinatiga 701,4 tonna, 1971-yilda 1071,7 tonna va 1972-yilning 11 oyida 858,8 tonna «skumbriya» balig'i keltirilgan[2:1]. Bu yaxshilangan assortimentdagi baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish imkonini berdi.

Mo'ynoq baliqchilik kombinati Orol dengizi janubidagi baliq ovlash rejasi KazNIIRX Orol bo'limi tomonidan taqdim etiladigan har yili beriladigan prognozlar asosida amalga oshirildi. Qozog'iston baliqchilik ilmiy-tadqiqot institutining Orol filiali 1960-1980-yillarda Qozog'iston Respublikasi suv havzalarining biologik xilma-xilligini saqlash, baliqchilik xo'jaligini rivojlantirish va uning faoliyatini ta'minlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot va ilmiy ishlab chiqarish ishlarini olib bordi. Filial gidrobiontlarning yashash muhitini ekologik jihatdan kuzatib bordi hamda Orol tumanidagi baliqchilik xo'jaligi suv havzalarining bioxilma-xilligini o'rgandi.

Shundan kelib chiqib, 1970-yilda rejadagi ovlash 6820 tonnani, 1971-yilda 6300 tonnani, 1972-yilda 6300 tonnani tashkil etgan bo'lsa, amalda shu davrda 1970-yilda 7063 tonna, 1971-yilda 7641,3 tonna, 1972-yilning 11 oyida 8775 tonna baliq ovlangan [3:3]. Umuman olganda, 1971-1974-yillarda va 1975-yilning yanvar oyida 325ming sentnerdan ortiq Orol balig'i ovlanib, davlatga topshirildi[4:2]. QQASSR Xalq nazorati qo'mitasining 1974-yil 27-noyabrdagi qarorida ta'kidlanishicha, bu yerda okean baliq turlaridan konservalar ishlab chiqarish o'zlashtirilgan[5:27]. Orol dengizi suvining pasayishi sovet-partiya organlarini baliqchilikni rivojlantirishning yangi shakl va usullarini izlashga majbur etdi.

«Qoraqalpog'iston ichki suv havzalarida sanoat baliqchiligini rivojlantirish masalalari avtonom respublika partiya va sovet organlarining diqqat markazida» ekanligi ta'kidlandi[6:4]. 1970-yillar boshida QQASSR ichki suv havzalarini pasportlashtirish amalga oshirildi. Bunda asosiy vazifa suv havzalarini aniqlash, ularning ozuqa bazasini, gidrokimyoviy rejimini, qimmatli baliq turlarining biologiyasini o'rganish, Amudaryo oqimining pasayishi munosabati bilan suv ta'minotini hisobga olgan holda suv havzalarining hozirgi holati va istiqbollarini tavsiflash edi. Tadqiqot davomida ma'lum bo'ldiki, Amudaryo oqimining sug'orishga yo'naltirilishi va meliorativ ishlarning olib borilmaganligi sababli respublika ko'llar tizimida tub o'zgarishlar yuz bergan. Deyarli barcha dengiz bo'yi ko'llari (Sudoche, G'arbiy Qorateren, Maqpalko'l, Azbergenko'l, Ariqbaliq va boshqalar) baliqchilik ahamiyatini yo'qotdi. Shu bilan birga, irrigatsiya tarmoqlarining keng rivojlanishi, sug'orish kanallari va kollektorlarning qurilishi va qayta tiklash ishlari natijasida yangi suv havzalari paydo bo'ldi. Suv havzalarining umumiy maydoni 40 ming gektarga yaqin edi. Ta'kidlash joizki, ko'llarning asosiy to'yinish manbai kollektor kanallarining oxirgi qismlari va oqova-yer osti suvlari hisoblanadi.

1970-yillarning ikkinchi yarmida QQASSRda sholichilik keng rivojlanishi tufayli sug'orish kanallari va kollektorlar tarmog'i ham katta rivojlanishga erishdi. Yangi suv havzalari vujudga keldi, ilgari kam suvli bo'lgan ko'pgina ko'llar suv bilan to'ldirildi. O'zSSR FA Qoraqalpog'iston filiali tomonidan o'tkazilgan ko'llar va suv havzalarini pasportlashtirish shuni ko'rsatdiki, Qoraqalpog'iston ASSRda baliq ovlash uchun yaroqli umumiy maydoni 40000 gektar bo'lgan 40ga yaqin ko'l mavjud [7:26]. Shundan atigi 25 foizidan foydalanilgan, qolgan ko'llar qarovsiz ahvolda edi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi va O'zSSR Vazirlar Kengashi 1978-yil 28-iyundagi «Respublikada baliq va baliq mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi baliqchilikni avvalgi miqyosda tiklashga bo'lgan so'nggi urinishlardan biri bo'ldi. Asosiy e'tibor, tabiiyki, Mo'ynoq

baliqchilik sanoati ishlab chiqarish birlashmasiga qaratildi. 1977-1978-yillarda Mo'ynoq tumani Porlitau qishlog'i hududida yiliga 50 million dona lichinka boqish quvvatiga ega inkubatsiya sexi, quvvati 150 gektarga teng bo'lgan Mo'ynoq baliq o'stiruvchi xo'jaligi qurilib ishga tushirildi.

XULOSA. Shunday qilib, 1970-yillarning oxiriga kelib, Orol dengizidagi baliq xo'jaligi deyarli to'xtatildi va suv havzasi o'zining baliqchilik ahamiyatini yo'qotdi. Endi Orol dengizida baliqchilikni tashkil etishga ilmiy yondashuvlar emas, balki dengizning o'zini saqlab qolish masalasi dolzarb edi. Keyinchalik hukumat tomonidan bir qator qarorlar qabul qilingan bo'lsa-da, paxtachilikni rivojlantirish va yangi yerlarni sug'orish global ekologik falokatga olib keldi. 1980-yillar boshida Orol inqirozining asosiy sababi xalq xo'jaligining mavjud ishlab chiqarish tuzilmasi ekotizim imkoniyatlari va holatiga mutlaqo mos kelmasligi aniqlandi. Bu o'tmishda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tabiat va iqtisodiyot qonunlarini mensimasligi, suv va boshqa resurslardan cheksiz foydalanishi natijasida yuz berdi. Orol dengizi, Amudaryo va Sirdaryo daltalari ekotizimlarini muhofaza qilish bo'yicha irrigatsiya qurilishi loyihalarining tavsiyalari amalda bajarilmadi. Orol dengizi havzasida sug'orishning rivojlanishi mintaqalar manfaatlaridan ko'ra ko'proq markazning

manfaatlari yo'lida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va melioratsiya qurilishiga katta mablag'lar sarflanishi bilan kechdi. Irrigatsiyaga haddan tashqari ahamiyat berish, qishloq xo'jaligini kimyolashtirish va boshqa turdagi antropogen ta'sirlarning kuchayishi ushbu mintaqa tabiati va xo'jaligida tub o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Paxta va sholi yakkahokimligini tarqatishda suvni ko'p talab qiladigan ishlab chiqarishni birinchi navbatda rivojlantirishning tanlangan strategiyasi daryo suvlarini sug'orish uchun jadal o'zlashtirishga olib keldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. QR MDA, R-551-fond, 2-ro'yxat, 2435-ish, 18-varaq.
2. QR MDA, R-177-fond, 1-ro'yxat, 751- ish, 1-varaq.
3. QR MDA, R-177-fond, 1-ro'yxat, 751-ish, 3-varaq.
4. QR MDA, R-551-fond, 2-ro'yxat, 3158-ish, 2-varaq.
5. QR MDA, R-177-fond, 1-ro'yxat, 868-ish, 27-varaq.
6. QR MDA, R-551-fond, 2-ro'yxat, 3449-ish, 4-varaq.
7. QR MDA, R-177-fond, 1-ro'yxat, 1426-ish, 26-varaq.

